

**TOLDOSHLAR OILASI , RESPUBLIKAMIZDA KENG TARQALGAN
TURKUM VA TURLARIGA TA'RIF**

G'ofurova Muqaddasxon Shavkatjon qizi

*Andijon davlat pedagogika inistituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi toldoshlar oilasiga umumiy tavsif, sistematikasi, respublikamizda keng tarqalgan turkum va turlariga ta'rif va ularning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной дипломной работе даны общая характеристика и систематика семейства ивовых, описание видов и видов, распространенных в нашей республике, и их значение.

Abstract: This thesis provides a general description of the Toldosh family, its systematics, a description of the genera and species common in our republic, and information about their significance.

Kalit so'zlar: Toldoshlar oilasi, ekologik sharoit, introduksiya, mahalliy, aktinomorf, zigomorf, vegetatsiya, senokarp, Salicaceae, Cucurbitales, salix, Begoniales.

Ключевые слова: семейство ивовых, экологические условия, интродукция, локальность, актиноморфа, зигоморфа, растительность, сенокарпий, Salicaceae, Cucurbitales, Salix, Begoniales.

Keywords: Toldosh family, ecological conditions, introduction, local, actinomorphic, zygomorph, vegetation, xenocarp, Salicaceae, Cucurbitales, salix, Begoniales.

Toldoshlar oilasi (Salicaceae) — ikki uyli o'simliklar oilasi. Daraxt, buta va ba'zan yarimbuta. Bargi oddiy, spiralsimon joylashgan; gullari bir jinsli, to'pguli kuchala. Barg yozilguncha yoki yozilgandan keyin kuchala hosil qiladi. Gullari yon bargchalar qo'ltig'ida. Changchisi 8 tagacha. Mevasi bir uyali, ko'p urug'li ko'sakcha, ikki-uch pallaga bo'linadi, urug'ining tubida kumush rang tuklari bor. Asosan senokarp

tipda tuzilgan. Urug'lari shu tuklar yordamida, havo va suv orqali tarqaladi. Urug'idan va qalamchasidan ko'payadi. Shimoliy yarim sharining mo'tadil zonasidagi daryo, ko'l bo'ylarida nam yerlarda usadi. Toldoshlarning 3 turkumi, 400-420 dan ortiq turi bor. O'rta Osiyoda 70 turi bo'lib, 40 tasi mahalliy, 30 tasi introduksiya qilingan.

Odatda barg chiqarishiga qadar gullaydi. Gulyonbargchalari butun va tukli bo'ladi. Gulqo'rg'oni bokalsimon yoki o'yilgan, sharsimon shiradonga aylanga. Erkak guldagi otaligi ikkita, bazan uchta, beshta, o'n ikkita. Urug'ida ipaksimon tuki bor. Hashoratlar vositasi bilan, bazan shamol vositasi bilan changlanadi. Chetdan changlanish natijasida osonlik bilan yangi duragaylar xosil bo'ladi. Tollar bir-biriga juda o'xshash va ularni tashqi uzilishidan ajratish juda qiyin. Tollar xar hil ekologik sharoitlarda ko'proq daryo, kanal, ariq va xovuzlar bo'yida o'suvchi yorug'sevor o'simliklar xisoblanadi. Vegetativ yo'l bilan yaxshi ko'payadi. Urug'ining unib chiqish muddati ancha qisqa bo'lib, ikki haftadan so'ng unib chiqish qobiliyatini yo'qotadi. O'zbekistonda yovvoyi xolda echkitol (*salix sangarica*), suv tol (*salix nilhelmsiana*), blok toli (*salix blaskii*), sariq tol (*S. euapiculata*), Olga toli (*Salix Olga Regal*), nedzveski toli (*salix wedz weckii*), Velgelms toli (*S. Welhelmsiana Bieb*), ko'k tol (*salix coerullea*), qirchin tol (*salix tenuijulis*), sambittol (*salix tenuijulis*) lar daryo qirgoqlarida o'sib to'qaylar xosil qiladi. Shaxarlarda anxor va xovuzlar bo'yida, bog' va parklarda amudaryo toli (*salix oxika*), qora tol (*salix avstralior*), oq tol (*salix alba*), yaltiroq tol (*salix mikans*), majnuntol (*salix bebylonica*) kabi turlarini ekib o'stirilishini ko'rishimiz mumkin.

Sistematikasi-Qovoqnamolar (Cucurbitales) qabilasi, qabilaga bitta qovoqdoshlar oilasi kiradi. Begoniyanamolar (Begoniales) qabilasi, qabila 2 ta oilani birlashtiradi. Bulardan eng keng tarqalgani begoniyadoshlardir va yana qizilyugurudoslar oilasi. Kovulnamolar (Capparales) qabilasi, 4 ta oila kiradi. keng tarqalgani kavuldoshlar va karamdoshlar oilasi. Gulxayrinamolar (Malvales) qabilasi 11 ta oilani birlashtiradi. Gzandanamolar (Urticales) qabilasi, 5 ta oilani birlashtiradi. Sutlanamolar (Euphorbiales) qabilasi, 4 ta oilani o'z ichiga oladi.

Keng tarqalgan oilalari haqida ma'lumot quyidagilardan iborat. Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasi □ Bu oilada 90 ga yaqin turkum va 700 ga yaqin turni o'z ichiga

oladi . O'zbekistonda 3 ta turkumga mansub , 5 ta turi o'sadi. Oila vakilari asosan tropik xududlarda , Afrika , Osiyo va Amerikaning mo'tadil iqlimli mintaqalarida o'sadi. O'zbekistonda qovun , tarvuz, bodring , va qovoqlarni bir necha turlari ekiladi. Bu oilaga bir yillik va ko'p yillik o'rmalab o'suvchi o'tlar , yarim buta , buta , va ba'zi daraxtlar kiradi. Bargi oddiy , ketma-ket joylashgan. Gullari aktinomorf, bir jinsli gulkosacha va gultoji barglari 5 tadan ,changchilari 3-5 ta , urug'chisi 3 ta mewabargchalardan iborat. Mevasi qovoqmeva . Bu oilaga qovoq (Cucurbita), bodring (cucumis), tarvuz (Cirtrullis), qovun (Melo) kabi turkumlar kiradi

Begoniyadoshlar (Begoniaceae) oilsi-Oilaga 5 ta turkumga oid 1000 ga yaqin tur kiradi. Ular yer yuzida keng tarqalgan o't va ayrim butalardan tashkil topgan. Gullari asosan barg qo'ltigidagi shingilsimon to'pgularda o'nashgan , ko'pincha zigomorf,bir jinsli , gulqo'rg'oni 2-4 ta rangli bargchalardan tashkil topgan. Changchilari ko'p , urug'chisi 3 ta mewabargdan iborat. Mevasi qanotchali ko'sakcha , ba'zan rezavor meva.

Toldoshlar oilasini ba'zi turlari inson faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, dori-darmon, moy, choy va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Shu bilan birga, ayrim toldosh o'simliklari qishloq xo'jaligi zararkunandalari hisoblanadi. Umuman olganda, toldoshlar oilasi biologik xilma-xilligi, ekologik moslashuvchanligi va inson hayotidagi muhim roli bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'.Pratov,QJumayev□YUKSAK O'SIMLIKLAR SISTEMATIKASI□.Toshkent-2003.(144 bet)
2. O'.Pratov va boshqalar.□Botanika□.□TA'LIM NASHRIYOTI□.Toshkent-2010.(291 bet)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Toldoshlar>
4. <https://soff.uz/product/botanika-toldoshlar-oilasi>